

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI
“GLOBAL TADQIQOTLAR (GLOBAL RESEARCH)” MARKAZINING
2025/2026-O‘QUV YILIDA BAJARGAN ISHLARI BO‘YICHA
HISOBOTI**

1. 2025-yil 29-noyabr kuni Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida Xalqaro yoshlar kuniga bag‘ishlangan “O‘zbekiston–Malayziya YOSHLAR FESTIVALI” bo‘lib o‘tdi. Tadbirda universitet rahbariyati, professor-o‘qituvchilar, talabalar hamda Malayziyaning O‘zbekistondagi Favqulodda va Muxtor elchisi Ilham Tuah bin Illias ishtirok etdi. “O‘zbekiston–Malayziya Yoshlar Festivali” hamda “Globallashuv sharoitida yoshlar ma’naviyati” mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiyasi ham bo‘lib o‘tdi.



2. Malayziya Milliy Universiteti (Universiti Kebangsaan Malaysia – UKM) huzuridagi **Islom Hadari Instituti** tomonidan ilmiy-ma’rifiy tadbir tashkil etildi. Janubiy Osiyo tillari va adabiyoti oliy maktabi boshlig‘i, PhD Nasiba Abduganiyeva tomonidan Malayziya Milliy Universiteti (Universiti Kebangsaan Malaysia – UKM) huzuridagi Islom Hadari Instituti “Uzbek, Malay, Indonez xalq og‘zaki ijodida, ertaklarining o‘xshash va farqli jihatlari” mavzusida ma’ruza tashkil qildi. Mazkur seminar folkloriga bag‘ishlandi va unda, xususan, o‘zbek, malay va indonez ertaklaridagi o‘xshash jihatlari hamda ularning milliy xususiyatlari yoritib berildi.

The poster is for an event titled "WACANA HADHARI 6/2025" with the main theme "CULTURAL SIMILARITIES AND DIFFERENCES BETWEEN UZBEK, MALAY AND INDONESIAN FOLKLORE". It features two speakers: Dr. Nasiba Abduganiyeva Azizovna, a lecturer at Tashkent State University of Oriental Studies, Uzbekistan, and Ts. Dr. Farah Ayuni Mohd Hatta, a research fellow at Institut Islam Hadhari, UKM. The event is scheduled for December 29, 2025, from 2:30 to 4:30 PM. It is a hybrid event held via Zoom and in person at Institut Islam Hadhari, UKM. The poster includes logos for Universitas Kebangsaan Malaysia, Institut Islam Hadhari, and various social media and institutional icons at the bottom.

WACANA HADHARI 6/2025

CULTURAL SIMILARITIES AND DIFFERENCES BETWEEN UZBEK, MALAY AND INDONESIAN FOLKLORE

Speaker
DR. NASIBA ABDUGANIEVA AZIZOVNA
Pensyarah
Tashkent State University of Oriental Studies,
Uzbekistan.

Moderator:
TS. DR. FARAH AYUNI MOHD HATTA
Felo Penyelidik
Institut Islam Hadhari, UKM.

Tarikh:
29 Disember 2025

Masa:
2.30 – 4.30 petang

Hibrid: Aplikasi Zoom & Bilik Persidangan Sheikh Abdullah Fahim, Aras 1, Institut Islam Hadhari, UKM

zoom <https://bit.ly/WACANAHADHARI6>

in f Instagram Institut Islam Hadhari UKM

ILMU, MUTU DAN BUDI MALAYSIA MADANI VATAN KITA SUSTAINABLE DEVELOPMENT GOALS #126 #53

3. "Global Research" markazi qoshida Janubiy Osiyo tillari va adabiyoti oliy maktabi o'qituvchisi **Mahliyo Ochilova** tomonidan tayyorlangan "**Malay tili-Bahasa Melayu**" nomli o'quv qo'llanma chop etildi. Ushbu o'quv qo'llanma zamonaviy yondashuv asosida tayyorlangan bo'lib, talabalarning 4 ta asosiy til ko'nikmasini (eshitish, gapirish, yozish, o'qish) rivojlantirishga qaratilgan.

Ushbu kitobni tayyorlashda Sulton Idris nomidagi pedagogika universitetidagi hamkorlarimiz taqrizchi hamda audio matnlarni tayyorlashda yaqindan ishtirok etishgan.



4. Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti (TSUOS) va Sultan Idris Ta'lim Universiteti (UPSI) o'rtasida imzolangan MoU asosida Prof. Anida Saruddin joriy yilning 9-fevralidan 8- may oyiga qadar universitetimiz Janubiy Osiyo tillari oliy maktabi faoliyatiga qo'shildi. Prof. Anida Saruddin malay tilini o'rganayotgan talabalarga mahalliy malay tili o'qituvchilari bilan hamkorlikda malay tili, malay madaniyatidan dars berdi.



5. 2026-yil 2-mart kuni Toshkent davlat sharqshunoslik universitetiga Malayziyaning O‘zbekiston Respublikasidagi elchixonasi konsuli Arhan Shah Anuar boshchiligidagi delegatsiya tashrif buyurdi. Uchrashuvda TDSHU rektori, professor Gulchehra Rixsiyeva universitetda amalga oshirilayotgan islohotlar, ilmiy-tadqiqot yo‘nalishlari hamda malay tilini o‘qitish bo‘yicha erishilgan natijalar, 224 nafar talaba malay tilini o‘rganib kelayotganini ta’kidladi. Shunigdek, Malayziyaning University of Malaya bilan hamkorlik memorandumini imzolash, talabalar uchun grant va stajirovkalar tashkil etish hamda qo‘shma tadbirlar o‘tkazish masalalarini muhokama qilindi.



7. Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti 1-bosqich magistranti Sarvinoz Akramova malay tilini o'rganish jarayonida erishgan yutuqlari, shuningdek, universitetda malay tilining o'qitilishi haqida "O'zbekiston–Malayziya olimlari xalqaro forumi"da o'z nutqi bilan ishtirok etdi.



8. Joriy yilning 18-aprel kuni "O'zbekiston uchun malay tilini rivojlantirish va madaniy salohiyatni kuchaytirishga qaratilgan ilg'or modulni ishlab chiqish" nomli xalqaro tadqiqot loyihasi doirasida Malayziya Milliy Universiteti (UKM) professor-o'qituvchilari Dr. Norshariani Abd Rahman hamda Nurul Hafizah Mohd Nor tomonidan malay tili o'qituvchilar va talabalari uchun amaliy seminar o'tildi. Mazkur seminar davomida malay tilini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar, modul tizimini yaratish tamoyillari, o'quv dasturlarini ishlab chiqishning metodik asoslari haqida ma'lumot berildi.



9. Janubiy Osiyo tillari va adabiyoti oliy maktabi , filologiya yo‘nalishi 3-kurs malay-
ingliz guruhi talabalari talabalar almashinuvi doirasida Malayziyaning Sultan Idris
nomidagi pedagogika universiteti (UPSI) ga jo‘nab ketishdi.Ushbu tashrif
talabalarining xalqaro tarjima orttirishi, til bilimlarini mustahkamlashi hamda madaniy
almashinuvni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.



10. Malayziyada bo‘lib o‘tgan "**Malay tili-2026**" notiqlik san'ati, xalqaro tanlovida
"Turizm" ta'lim yo‘nalishi 3-kurs talabasi **Madinabonu Abdullayeva** faxrli 1 o‘rinni
egalladi.



“Global research”
markazi rahbari

N.Xodjayeva